

"INGLIZ TILINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN  
FOYDALANISH VA ULARNING AHAMIYATI."

Xurramova Umida Jamoliddinovna

+998903782304

xurramova@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi

## ABSTRACT

This article provides information on productive, modern and innovative methods of teaching English, in order to get learners more interested in primary classes.

**Key words:** Mixed technique, interesting games, primary classes, modern and innovative methods, pantomime.

## АБСТРАКТНЫЙ

В этой статье представлена информация о продуктивных, современных и инновационных методах преподавания английского языка, чтобы повысить интерес учащихся к начальным классам.

**Ключевые слова:** Смешанная техника, интересные игры, начальные классы, современные и инновационные методы, пантомима.

## ANNOTASIYA

Ushbu maqola o'quvchilarni boshlang'ich sinflarga qiziqishini oshirish uchun ingliz tilini o'qitishning samarali, zamonaviy va innovatsion usullari haqida ma'lumot beradi.

**Kalit so'zlar:** Aralash texnika, qiziqarli o'yinlar, boshlang'ich sinflar, zamonaviy va innovatsion usullar, pantomima.

## KIRISH

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi hayotimizning ajralmas qismlaridan biri bo'lib kelmoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktabgacha ta'lif muassasalari va maktab keyinchalik institatlarda, o'quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganadilar. Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish o'qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog'liq.

Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish qobiliyatini yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lif dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Ingliz tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-

bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tillarni tez va oson o'zlashtiradilar.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan

mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir” deya ta'kidlagan birinchi prezidentimiz Islom Karimov. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-1875-soni qaroridir. Ushbu qarorga muvofiq chet tillarini, asosan, ingliz tilini boshlang'ich sinfdan boshlab o'rgatish, ularni chet tillarini o'rgatishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish uchun umumta'lim maktablarida 1-sinfdan boshlab ingliz tili darslarini turli xil qiziqarli o'yinlar tarzida o'qitish va shu bilan birga o'quvchilarning og'zaki nutqini ham rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish mumkin:

- Ko'rish orqali eslab qolish. Ma'lumki, yosh bolalar eshitgan ma'lumotlaridan ko'ra, ko'proq ko'rgan predmetlarini eslab qoladi. Shunday ekan, darsni turli xil ko'rgazmali qurollar, plakatlar orqali, ko'zga ko'rindigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish orqali yangi so'zlarni o'rgatish va o'rgangan yangi so'zları ishtirokida gaplar tuzish. Masalan, kitob (book), stole (table), doska (blackboard), ruchka (pen), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan bunday narsa-buyumlar ko'zga doimo tushib turishi va doimo qo'llanilishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi.

- Qo'shiq va she'rlar orqali tushunish yoki eslab qolish qiyin bo'lgan so'zlarni musiqaga solib kuylash. Bunda yangi so'zlarni eslab qolish bilan birga, bolaning og'zaki nutqi ham rivojlanadi. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari, shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

- TO raqobatdosh grammatika va so'z boyligini o'zlashtirishga yordam beradigan o'yinlarning aksariyatini o'z ichiga oladi. Bunda bolalar o'qituvchi bergen turli xil topshiriqlarni bajaradi. Natijada o'quvchilar orasida raqobat vujudga kelib, til o'rganishga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi. Zero, Xitoy mutafakkirlari aytganidek: “Insonning barcha qiziqishlari raqobat orqali vujudga keladi”.

- Aralash texnika bu yerda biz ixtiyoriy ravishda turli xil texnikalarni birlashtira olamiz. Masalan, bunda bolalar o'yin o'ynashi, qo'shiqlar aytishdi, rasm chizishi, turli xil harakatlar orqali yangi so'zlarni ko'rsatib berishi mumkin. Texnikaning afzalligi xilma-xillikda. Bunda o'quvchi faqat bitta narsa orqali cheklanib qolmaydi.

• Multfilmlar orqali o'rgatish. Ma'lumki, bolalar turli xil multfilmlarni ko'rishga qiziqadi. Ingliz tilidagi multfilmlarni ko'rish jarayonida esa, multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

### NATIJA

Darhaqiqat, sezgi a'zolar orqali til o'rganish boshqa usullarga qaraganda foydali va samarali hisoblanadi. Masalan, o'quvchi birgina olmani tatib ko'rish jarayonida uning rangi, ta'mi, hajmi, hidi qanday ekanligini biladi va uning inglizcha nomini ham aytadi. Natijada esa, o'qituvchi bolalardan ranglarning inglizcha nomini so'rab qolsa, bolalar darrov meva yegan paytini eslaydi. Demak, bunday usullardan foydalanish o'quvchining ma'lumotlarni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishga yordam beradi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi, ularning keljakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan, ta'lim tizimli ham o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqish bilan o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. “Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishning innovatsion usullari”. Nodira Qurbonaliyeva. Maqola.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarori.
3. Общеевропейские компетенции владения иностранным языком: изучение, преподавание, оценка. –Страсбург; Cambridge: Cambridge University Press: МГЛУ, 2003. – 242 с.